



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

8-SINF O‘ZBEK O‘QUVCHILARIDA SO‘Z MA‘NOSINING O‘ZLASHTIRILISHI TADQIQI A STUDY OF LEXICAL MEANING ACQUISITION IN 8TH GRADE UZBEK STUDENTS

Keldiyorova Zarinabonu Sirojiddin qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvistika: o‘zbek tili
mutaxassisligi magistranti

E-mail: zarinabonukeldiyorova1@gmail.com

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/FWDR9137](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/FWDR9137)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada 8-sinf o‘quvchilarining ona tilidagi produktiv va perseptiv lug‘atini tekshirishga qaratilgan tajriba ishlari aks etgan. Tadqiqot natijalari asosida xorijda olib borilgan tajriba xulosalarining o‘zaro muvofiqligi tekshirildi. Shuningdek, o‘quvchilarning yangi o‘rgangan so‘zlari asosida berilgan topshiriqlarga qay darajada javob berganligi tahlil qilindi, taqqoslandi.*

Kalit so‘zlar: *produktiv lug‘at, perseptiv lug‘at, tajriba, topshiriq.*

Annotation. *This article presents experimental research aimed at examining the productive and receptive vocabulary of 8th-grade students in their mother tongue. Based on the research findings, the consistency of conclusions drawn from similar studies conducted abroad was examined. In addition, students’ performance on tasks based on newly learned words was analyzed and compared.*

Keywords: *productive vocabulary, receptive vocabulary, experimental study, task-based activities.*

So‘z o‘zlashtirilishi so‘zlovchining nutqi yoki xotirasida yangi so‘zlarni saqlashi va tushunib, ishlata olishidir. Tilshunoslikda birinchi til (ona tili) va xorijiy tilda yangi so‘zlarning o‘zlashtirilishi tadqiqiga oid muammolar hozirgi kungacha dolzarb masala bo‘lib kelmoqda. Garchi jahon tilshunosligida bolalarning ilk so‘zlari, ularning ona tilidagi yangi so‘zlarni o‘zlashtirishi, so‘zlarning ma‘nosini tushunishi [Clark, 1993, 2003], kichik sinf o‘quvchilariga yangi so‘zlarni tartib va ketma-ketlikda o‘rgatish [Biemiller, 2002] bo‘yicha bir qator ilmiy ishlar qilingan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunosligida bu mavzuda hali yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

Tajriba Toshkent shahridagi “Sodiq school” xususiy maktabida tahsil olayotgan 8-sinf o‘zbek o‘quvchilari bilan o‘tkazildi. O‘quvchilarning beshtasi qiz bola, beshtasi o‘g‘il bola. Tajriba uchun o‘quvchilarni tanlashda ularning yoshi, dastlabki ta’lim tilining o‘zaro muvofiqligiga e’tibor qaratildi. Ya’ni o‘zbek oilada katta bo‘lgan, o‘zbek bog‘chada tarbiyalangan, boshlang‘ich ta’limni ham o‘zbek sinfda olgan o‘quvchilar tanlandi.

1-jadval. Tajriba ishtirokchilari haqida ma’lumot.



/r	Tajriba ishtirokchilari:	Jins:	Yosh:	Sinf:	Qaysi qo'lda yozadi?
.	EH	erkak	13	8	o'ng
.	MZ	ayol	13	8	o'ng
.	BO	erkak	13	8	chap
.	DG	ayol	13	8	o'ng
.	IH	ayol	14	8	o'ng
.	RA	ayol	13	8	o'ng
.	MN	ayol	13	8	o'ng
.	AU	erkak	13	8	o'ng
.	MSh	erkak	14	8	o'ng
0.	AA	erkak	13	8	o'ng

O'quvchilarning yangi so'zlarni qay darajada o'zlashtirganini tekshirish, umuman olganda perseptiv (tushunish) va produktiv (qo'llash) lug'atini tekshirish uchun 2025 – 2026-o'quv yilining I va II choragida ona tili fanidan o'rgatilgan oltmishta (60) yangi so'z tanlab olindi. Bular: 40 ta ot so'z turkumi, 7 ta sifat so'z turkumi, 10 ta fe'l so'z turkumi, 3 ta ravish so'z turkumidagi so'zlardan iborat.

Tajriba uchun tanlangan so'zlar:

2-jadval.

/r	Ot turkumiga mansub so'zlar:	
.	Hayvon otlari:	qirchang'i, darranda, uloqcha, to'ng'iz, parranda, pada, jish, taka, qo'zi(choq), qulun (toychoq), buzoq(cha), xumpar,
.	Qarindoshlik otlari:	qaynisingil, qayinbo'yin, amma, xolavachcha, pochcha,
.	Ro'zg'or buyumlari otlari:	supra, g'alvir, to'shama,
.	Atamalar:	nabotot, bo'nak, varvarizm, havola, tambur,



.		sinonim, novella, qiymat, dovon
.	Oziq-ovqat otlari:	qimiz, shubat, qarta,
.	Temporallik (payt va vaqt) otlari:	fursat, kez
.	Shaxs otlari:	mutaxassis, doya, ag‘yor
.	Aqliy faoliyat otlari:	Tafakkur
Jami: 8 ta semantik guruh		

3-jadval.

Fe‘l turkumiga mansub so‘zlar:	
1. ko‘ngil olmoq	6. fath qilmoq
2. dili og‘rimoq;	7. hapriqmoq
3. ko‘ngli qolmoq;	8. ra‘yiga qaramoq
4. qovog‘idan qor yog‘moq;	9. tadbiiq qilmoq
5. yuragi tovoniga tushmoq;	10. anglamoq
Izoh. Bulardan 5 tasi fe‘l vazifasini bajaruvchi iboralar bo‘lib, morfologik jihatdan fe‘l deb olindi.	

4-jadval.

Sifat turkumiga mansub so‘zlar:	
1. muqobil	5. ko‘hna
2. saxovatli	6. mulzam
3. ziyrak	7. baynalmilal
4. tarqoq	

5-jadval.

Ravish turkumiga mansub so‘zlar:
1. behuda
2. bultur
3. jadal

Tanlangan so‘zlar asosida uch turdagi topshiriq tuzildi va o‘quvchilarga tarqatildi. So‘ng yozma shaklda javob berishi aytili. Tajriba jarayonida ishtirokchilarning yonma-yon yoki yaqin masofada o‘tirmasligi, telefon, daftardan foydalanmasligi nazorat qilindi. Ushbu tajriba topshiriqlari ona tili darsining uch o‘quv soatida bajartirildi. 1-topshiriq – berilgan 25 ta yangi so‘zning izohini yozishda dars jarayonida bu so‘zlarning izohi qanday o‘rgatilgan bo‘lsa, shu shaklda yozishi kerakligi aytili. Bajarish uchun 30 daqiqa vaqt ajratildi.

1-topshiriq.



1. Berilgan so‘zlarning ma’nosini yozing.

1. to‘shama; 2. qirchang‘i; 3. nabotot; 4. darranda; 5. uloqcha; 6. supra;
7. g‘alvir; 8. bo‘nak; 9. varvarizm; 10. mutaxassis; 11. havola; 12. tambur; 13.
muqobil; 14. zeb; 15. vaj; 16. kez; 17. doya; 18. qimiz; 19. qaynisingil; 20.
qayinbo‘yin; 21. t o‘ng‘iz; 22. saxovatli; 23. ag‘yor; 24. sinonim; 25. ko‘ngli
qolmoq.

1-topshiriqni baholashda berilgan so‘zlarning izohi va sinonimi yozilgan javoblar to‘g‘ri javob deb qabul qilindi. Bo‘sh qoldirilgan, xato izohlangan so‘zlar qabul qilinmadi.

2-topshiriq uchun ham o‘quvchilarga 25 yangi so‘z berilib, ular ishtirokida gap yozishi so‘raldi. Ushbu topshiriq uchun 40 daqiqa berildi.

2-topshiriq.

2. Berilgan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing. DIQQAT! Berilgan barcha so‘z ishtirok etishi kerak.

1. dili og‘rimoq; 2. ko‘ngli qolmoq; 3. qovog‘idan qor yog‘moq; 4. yuragi tovoniga tushdi; 5. tafakkur; 6. qiymat; 7. behuda; 8. dovon; 9. fursat; 10. bultur; 11. ziyrak; 12. tarqoq; 13. fath qilmoq; 14. novella; 15. ko‘hna; 16. mulzam; 17. baynalmilal; 18. jadal; 19. hapriqmoq; 20. ra‘yiga qaramoq; 21. tadbiiq qilmoq; 22. anglamoq; 23. parranda; 24. poda; 25. jish. 26. shubat.

Namuna: 1. Ko‘chada o‘g‘lining begona boalalar bilan mushtlashganini eshitgan onaning dili qattiq og‘ridi.

2-topshiriqni baholash jarayonida har bir to‘g‘ri gap, shuningdek, matn shaklida yozilgan javoblar ham to‘g‘ri javob deb qabul qilindi. Oxiriga yetmay qolgan gaplar to‘g‘ri javob sifatida olinmadi.

3-topshiriq uchun o‘quvchilarga javobi bitta so‘z bilan ifodalanuvchi 10 ta savol berildi. Topshiriqni bajarish uchun 10 daqiqa berildi.

3-topshiriq.

3. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Echkining erkagi nima deyiladi?
2. Qo‘yning bolasi nima deyiladi?
3. Otning ichagidan tayyorlangan taom nima deyiladi?
4. Otning opasi yoki singlisi nima deyiladi?
5. Xolangizning bolasi sizga kim bo‘ladi?
6. Opaning turmush o‘rtog‘i sizga kim bo‘ladi?
7. Otning yangi tug‘ilgan bolasi nima deyiladi?
8. Sigirning bolasi nima deyiladi?
9. Mushukning bolasi nima deyiladi?
10. Odamlar yurishidan paydo bo‘lgan kichik yo‘lakcha nima deyiladi?

3-topshiriqni baholashda kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari (-cha, -choq) tushirib qoldirilgan javoblar ham to‘g‘ri javob deb olindi.

Natijalar. Quyidagi jadvallarda o‘quvchilarning bajargan ishlari holati berilgan.

6-jadval. Umumiy natija.

/r	Tajriba ishtirokchilari:	I topshiriq. Jami: 25	II topshiriq. Jami: 25	III topshiriq. Jami: 10
	EH	1	0	6
	MZ	15	11	9
	BO	19	24	10
	DG	14	13	9
	IH	12	8	9
	RA	12	8	8
	MN	15	8	10
	AU	3	2	7
	MSh	4	2	5
0	AA	4	3	7

1-topshiriqda 10 ta o‘quvchidan 6 ta o‘quvchi berilgan so‘zlarga deyarli to‘liq izoh yozgan. Lekin bu ishlarning to‘rttasida bir uyaga kiruvchi so‘zlar (*uloqcha, toychoq, qo‘zichoq; g‘alvir, supra*) va paronimlar so‘zlar (*tambur-tanbur*) izohida chalkashlik borligi ma‘lum bo‘ldi. Shuningdek, 4 ta o‘quvchi mazkur ikki so‘zga: *supra – mashina turi, g‘alvir – elak* kabi izohlar ham berdi, boshqa ishlarda bu ikki so‘z ochiq qolgan. Qolgan 4 ta o‘quvchi faqat beshta so‘zga izoh yozgan. Qolgan so‘zlarning ma‘nosi yozilmagan.


2-topshiriqda berilgan so‘zlar ishtirokida gap tuzish so‘raldi. Natijalar quyida batafsil yoritildi.

O‘quvchi BO berilgan so‘zlarning 24 tasining ma‘nosini tushunib, gaplarni to‘g‘ri tuza olgan. Uning faqat “*hapriqmoq*” so‘zi ishtirokida tuzgan gapida bu so‘z xato qo‘llangan. Dars jarayonida bu so‘z ularga “*qattiq hayajonlanganidan yuragi tez urmoq*” degan ma‘noni anglatadi deb o‘rgatilgan. BO tuzgan gap: 19) *Mushuk ustimga sakrab meni hapriqtirdi*. O‘quvchi bu so‘zni *cho‘chib ketib yuragi tez urmoq* ma‘nosida (ya‘ni salbiy semada) tushungan.

MZ 11 ta so‘zdan foydalanib gap tuzgan. U foydalangan so‘zlar, asosan, ot va harakat fe‘liga oid so‘zlar. Foydalanish uchun berilgan “*tarqoq*” so‘zi o‘rniga “*tarqa*” so‘zidan foydalangan. MZ tuzgan gap: 12) *Ertalab turganimda uyqum tarqab ketdi*. MZ berilgan frazeologik birliklarning hech biridan foydalana olmagan. RJ tuzgan gaplarning birida “*fursat*” so‘zini quyidagicha ishlatgan: 8) *Imtihonga 1 soat fursatim qoldi*. O‘quvchilarga bu so‘zning izohi biror ishni bajarish uchun eng qulay vaqt deb o‘rgatilgan. Shundan xulosa qilish mumkinki, RJ fursat vaqt so‘zi bilan ma‘nodoshligini bilgan holda shu asosida bu so‘zdan foydalangan. O‘quvchi faqat so‘zlashuv uslubiga oid so‘zlargagina gap tuza olgan. IH, MN faqat so‘zlashuvdagina ko‘p qo‘llanuvchi so‘zlar ma‘nosini tushungan holda to‘g‘ri gap tuza olgan. Uslubiy xoslangan so‘zlar (*zeb, fursat,*

ko‘hna, vaj) qoldirib ketilgan. DG 13 ta so‘zga to‘g‘ri gap tuza olgan. Ushbu o‘quvchi novella va hapriqmoq so‘zlaridan quyidagicha foydalangan: 1) *Dugonam bilan novella ko‘rish uchun kinoteatrda borgan edik.* O‘quvchiga novella so‘zi “Dunyoning ishlari” asaridagi kichik hikoyalar misolida tushuntirilgan, izohlangan edi. Lekin o‘quvchi bu so‘zni ko‘proq telenovella shaklida uchratgan va bu so‘z film ma‘nosida kinoteatr bilan assotsatsiyalangan. 2) *Ziyoda imtihon javobini ko‘rib hapriqib ketdi.* Dars jarayonida bu so‘z ularga “qattiq hayajonlanganidan yuragi tez urmoq” degan ma‘noni anglatadi deb o‘rgatilgan. O‘quvchi so‘zning ijobiy semasini anglagan bo‘lsa-da so‘z oldidan yurak so‘zini qo‘llamagan. Qolgan 4 ta o‘quvchi berilgan so‘zlar ishtirokida matn tuzishga harakat qilgan. Lekin berilgan so‘zlardan maksimal 3 tagacha foydalana olgan.

3-topshiriq natijasi yuqoridagi topshiriqlarga qaraganda nisbatan yuqori bo‘ldi. Shunga qaramay bir uyaga kiruvchi so‘zlarni farqlolmaslik holati uchradi. Bu asosan, *jiyan-xolavachcha, toychoq-tulpor, uloqcha-toychoq, amma-xola, qimiz-qarta* juftliklarida yaqqol aks etdi.



1-rasm.

Ko‘rinib turganidek, uch xil turdagi topshiriqni hamma o‘quvchi turlicha bajargan, natijalar ham turli xil. O‘quvchilarning berilgan so‘zlarga izoh yozish ko‘rsatgichi o‘rtacha, so‘zlar ishtirokida gap tuzish natijalari ancha past va berilgan savollarga javob yozish ko‘rsatgichi ancha yuqori.

So‘z ma‘nosini o‘zlashtirish jarayoni til foydalanuvchisining yangi so‘zga duch kelganda uni ko‘rib tanishgina emas, balki uning mazmunini tushunish, eslab qolish va nutqda to‘g‘ri qo‘llay olishdir.

Birinchi topshiriqni bajarishda bir nechta o‘quvchi izoh o‘rnida sinonimlardan foydalandi. Ayrim o‘quvchilar berilgan so‘zlarni izohlashda talaffuzi o‘sha so‘zga yaqin bo‘lgan va o‘zi bilgan/eshitgan boshqa so‘zga



moslab eslab qolgan. Izohlarni yozishda esa eslab qolganlari (tushungani emas!)ga asoslandi. (BO: *ag'yor so'zi izohida ayg'ir so'zining izohini*, AU: *uloqcha izohi o'rnida buzoqcha so'zi izohini*, EH: *bo'nak so'zi izohida bo'lak so'zini yozdi*. DG, IH, RA: *Supra oshxona buyumining izohi sifatida avtomobil turi ekanligini yozdi*). Shuningdek, topshiriq javoblari tahlilida aniq bo'ldiki, uchta o'quvchi narsa otini izohlashda shaklan o'xshash so'zlarni tanlagan (MN: *supra – dasturxon, g'alvir – elak*; DG, RA: *g'alvir – elak*). Birinchi topshiriq natijalariga asoslanib, so'z o'zlashtirish jarayonida o'quvchi so'zni yaxshi tushunmasa-da lug'atidagi biladigan boshqa so'zga bog'lab eslab qoladi deyish mumkin. Natijalar esa bunday so'zlar faqatgina perseptiv lug'atdan o'rin olganini ko'rsatmoqda. Tajriba jarayonida 8 kishi *kez* so'zining izohini, ham, sinonimini ham yoza olmagan, ikki kishi sayr qilmoq, yo'l yurmoq kabi sinonimlardan foydalandi. *Vaj* so'zining sinonimi 5 ta qiz yoza olgan, o'g'il bolalarda bu so'z izohi ochiq qolgan. *Tambur, supra, g'alvir, qimiz, ag'yor, bo'nak* so'zlariga faqat bir o'quvchi to'g'ri javob yozgan.

O'quvchilarning yangi so'zlarni o'zlashtirish darajalari taqqoslanganda eng quyi ko'rsatkich ikkinchi topshiriq – gap tuzish jarayoniga to'g'ri keldi. Gap tuzish so'zning izohini yozishga qaraganda qiyin jarayon. Nutqda to'g'ri ishlatilgan so'zlar o'zlashtirish darajasining yuqoriligini ko'rsatadi. Agar o'quvchi so'zning ma'nosini umuman bilmasa, nutqiy vaziyatda gap tuza olmaydi, foydalana olmaydi. Chunki berilgan so'zlar ishtirokida to'g'ri gap tuzish bir nechta jarayonni talab qiladi. Bular: so'zning ma'nosini eslash/bilish, grammatik shaklini aniqlash, boshqa so'zlar bilan mantiqan to'g'ri joylashtirish kabilar. Bu topshiriqni bajarish jarayonida esa bir o'quvchi *fursat* so'zining konseptual ma'nosini to'la anglamagani uchun topshiriqni bajarishda xatoga yo'l qo'ydi (RJ: *Imtihonga 1 soat fursatim qoldi*), yana bir o'quvchi novella so'zini telenovella (qisqa film) ma'nosida qo'llagan (DG: *Dugonam bilan novella ko'rish uchun kinoteatrga bordik.*) *Fath etmoq* fe'lidan hech kim foyalanmagan. *Dovon, tafakkur, fursat, tafakkur* so'zlari eng kam ishlatilgan. Bu so'zlar ishtirokida faqat bir kishigina to'g'ri gap gap tuza olgan, ikki kishi noto'g'ri qo'llagan. Qolgan yetti kishi umuman foydalanmagan.

Uchinchi topshiriq natijasi yuqoridagi har ikkala topshiriqdan ancha baland. Bundan ma'lum bo'ldiki, o'quvchilar yangi so'zlarni eslab qolgach, shu so'zlar asosida tuzilgan savollarga oson javob beradi. Uchta o'quvchi barcha savollarga javob berdi, ikki o'quvchi “*Xolangizning bolasi sizga kim bo'ladi?*” savoliga xato javob bergan. Bunga sabab “*xolavachcha*” so'zining hozirgi paytda kam qo'llanishi deyish mumkin. Shuningdek, toychoq va uloq so'zlarini almashtirib qo'llagan holatlar ham uchradi.

Berilgan topshiriqlar asosida lug'aviy ma'no bosqichi hamda kontekstual ma'no bosqichlari tekshirildi. Natijalarga ko'ra, kundalik muloqotda deyarli ishlatilmaydigan, uslubiy xoslangan so'zlarni o'quvchilar eslab qololmagan, nutqida foydalana olmagan.



Tajriba uchun berilgan so'zlarni har bir o'quvchi turli darajada o'zlashtirgan. Berilgan oltmishta so'zning o'n ikkitasi (*tambur, supra, g'alvir, qimiz, ag'yor, bo'nak, dovon, tafakkur, fursat, tafakkur, fath qilmoq, hapriqmoq*) o'quvchilar tomonidan umuman o'zlashtirilmagan. O'ttiz uchta so'z (*ko'ngil olmoq, dili og'rimoq, ko'ngli qolmoq, qovog'idan qor yog'moq, yuragi tovoniga tushmoq, qirchang'i, nabotot, darranda, uloqcha, varvarizm, mutaxassis, havola, tambur, muqobil, zeb, kez, doya, qimiz, qaynisingil, qayinbo'yin, to'ng'iz, ag'yor, taka, qo'zichoq, qarti, xolavachcha, toychoq, buzoq, xumpar, so'qmoq*) o'quvchilarning perseptiv lug'atida mavjud, lekin nutqiy vaziyatda foydalana olmaydi. O'n beshta so'z (*to'shama, saxovatli, sinonim, amma, jiyan, novella, ko'hna, mulzam, jadal, tadbiiq qilmoq, anglamoq, ziyrak, bultur, behuda, parranda*) kontekstual darajada o'zlashtirilgan.

So'z ma'nosi ijtimoiy muloqot hamda madaniy muhit ta'sirida shakllanadi degan qarashga asoslansak, kundalik tez-tez ishlatilgan so'zlar miyada tezroq faollashadi. Kontekstual darajada o'zlashtirilgan so'zlar hajmining kamligi perseptiv lug'at hajmining produktiv lug'atnikidan doimo baland bo'lishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Biemiller, A. 2001. *Teaching vocabulary: early, direct, sequential*. American Educator.
2. Clark, E. V. 1993. *The lexicon in acquisition*. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Clark, E. V. 2003. *First language acquisition*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Shamsiyev U.Bb., Shamsiyeva M.B. “Психолингвистический анализ социализации ребенка”. O'zbekiston: til va amadaniyat. *Lingvistika*. 2023/1 (1): 75-85.
5. Муҳаммадиева, Д. (2021). Бобурнома” туркча таржимасида паремияларнинг қиёсий тадқиқи. Фил. фан. бўйича ёзилган дисс. автореф. Тошкент–2021.
6. Xolmanova, Z. (2025, July). O 'ZBEK SHEVALARI VA TURKIY TILLAR LEKSIKASIDAGI MUSHTARAKLIK. In *Conferences* (Vol. 1, No. 1).
7. O'razova, I. Frazemalardagi kontaminatsiya hodisasi.[Internet manba]. URL: <https://zenodo.org/records/11108578> (Murojaat etilgan sana: 17. 09. 2024).
8. X M. [Tasviriy ifodalarni o'qitishda «Qutadg'u bilig» matnidan foydalanish](#)
Совершенство преподавания родного языка в условиях многоязычного